2023



*гуманитарные науки*
*естественные науки*
*технические науки*

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал № 1*

ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

***2023***

**1-сан**

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гүўалық берилген.***

Нөкис

*Шөлкемлестириўшилер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги,*
*ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:**
**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

**Курганов А. М.** Инглиз ва ўзбек тиллари ҳарбий терминларининг лингвомаданий бирликларда ифодаланиши ........ 6
**Маллаева О. М.** Умумий ўрта таълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг индивидуал касбий ривожланиш траекторияси масалалари ........ 18
**Рузметова Н. В.** Роль и значение английского языка в профессиональной ориентации будущих правоведов ........ 24

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

**Bazarbaeva M. A.** Baslawish klaslarda oqiw-tárbiyaliq jumislar processinde informacion-kommunikaciya texnologiyalarinan paydalaniw ........ 32
**Хаджибеков С. Н.** Таълим кластери субъектлари интеграциясини лойиҳалаш механизми ........ 37
**Убайдова В. Э.** Ўзбекистонда экспортбоп енгил саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда Нақшбандия таълимотини қўллашда суҳбат методидан фойдаланиш ........ 41
**Хаджибеков С. Н.** Педагогик тажриба-синов ишларининг сифат ва самарадорлиги ........ 47
**Qurbonova Z. M.** Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishda mahmud az-zamaxshariy ta'limotidan foydalanish ........ 51
**Turgunova A. T.** Avlodlararo munosabatlar tizimida gerontopedagogika ........ 59
**Salieva P. A.** Malaka oshirish tizimida boshlanģich sinf o`qituvchisining kasbiy kompotentligini takomillashtirishda rivojlantiruvchi ta'lim o`rni ........ 67
**Jumanov A. A.** Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash holati va muammolari ........ 72
**Ergashev B. B., Mirsaidov I. T.** Professional ta'lim muassasasi o`quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 77
**Файзуллаев Р. Х., Сайфиева Ю. Ў.** Олий таълим муассасалари талабалари фанлардан мустақил билим олиш, фикрлаш, кўникма ва малакаларини шакллантириш ........ 85
**Чориев Р., Баратов М.** Касб таълими мутахассисларини дуал тизими асосида касбий фаолиятга тайёрлаш ........ 91
**Эргашева Г. Р.** Мутахассиснинг касбий мослашишига таъсир кўрсатувчи омиллар ........ 97
**Ходжанов А. Р.** Талабаларни тарбиялашда педагогик фаоллиятга куйиладиган замонавий талаблар ........ 102
**Ярова С. Б.** Талабаларнинг ижтимоий компетентлигини такомиллаштиришнинг назарий асослари ........ 111
**Очилов А. Х.** Таълим инновацияси ........ 118
**Болиев У. И.** Олий ўқув юртида талабаларни мусиқа таълими воситасида маънавий-ахлоқий тарбиялашга қўйиладиган талаблар ........ 122
**Shodiyev H. R.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish ........ 126
**Элмурзаева Н. Х.** Интеграциялашган таълимнинг асосий вазифаси ........ 132
**Ahadov M. Sh.** Kimyoda ekstern ta'limni joriy etish metodikasi ........ 136
**Samiyeva Sh. X.** Oliy ta'lim tizimida kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilarning fikrlash tipologiyasini rivojlantirish ........ 143
**Fayzullaev R. X.** Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini oshirishda resurs pedagogning o'rni va roli ........ 154
**Muqumova D. I.** Ta'lim jarayonidagi pedagogik ixtiloflar, ularning sabablari va bartaraf etish choralari ........ 160
**Исмаилова З. К.** Бўлажак профессионал таълим ўқитувчиларининг мобиллилик қобилиятини ривожлантириш ........ 168

**Мустафоева Д. А., Маматалиева М. И.** Инновацион таълим жараёнларини ташкиллаштиришнинг касбий-ижтимоий зарурати ..... 178
**Садикова Ф. М.** Компетенциявий ёндашув асосида талабалар мустақил ишини ташкил этиш ..... 183
**Жўраева Г. А.** Профессионал таълим йўналиши ўқувчи-талабаларида касбий компетенцияларни ривожлантириш ..... 189
**Мусаева Г. У.** Ёшларни касбий фаолиятга йўналтириш самарадорлигини таъминлаш ..... 195
**Olimova D. M.** Oʻquvchilarni milliy kashtachilik asosida estetik tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasi metodik muammo sifatida ..... 200
**Abduxamidov S. M.** Ta’lim metodlari haqida umumiy ma’lumot ..... 207
**Abduxamidov S. M.** Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tasviriy san’at darslarining mazmun va mohiyati ..... 210
**Allayorova S. B.** Ta’lim samaradorligini oshirishda integratsiya sharoitining didaktik imkoniyatlari ..... 213
**Allayorova S. B.** Ta’lim klasterida pedagogik innovatsiyalar tushunchasi ..... 219
**Jamolddinova S. N.** O‘qituvchining konfliktalogik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati ..... 224
**Jamoldinova S. N.** Kommunikativ qobiliyat - ta’lim-tarbiya jarayonidagi konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida ..... 229
**Элмурзаева Н. Х., Саидов З.Х., Абдуллаева М.Х., Маруфхонова С.У.** Таълим тизимининг инновациялар жараёнлари ..... 236
**Мустафоева Д.** Факторы развития компетентности персонала профессиональных образовательных учреждений ..... 242
**Элмурзаева Н. Х., Саидов З. Х. Абдуллаева М. Х. Маруфхонова С. У.** Методика стратегического планирования ..... 248
**Шахмурова Г. А., Халитова Р. А.** Формирование генетической грамотности у студентов биологического направления ..... 253
**Элмурзаева Н. Х. Профессиональное саморазвитие педагога**
**Zaripova D. A.** Training students on the basis of smart technologies in the development of innovation activities ..... 262
**Khamrayeva G. R.** Model of development of education quality assessment skills of vocational education students ..... 270

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

**Норинов Ф. Қ.** Геология фанининг тарихийлик нуқтаи назаридан тавсифий таҳлили ..... 278

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

**Jumamuratov A. J., Kalilaev F. K.** Mekteplerde elementar bóleksheler fizikasí bólimin oqítíwdí jetilistiriw jollarí (Mektep fizika páni muǵallimlerine metodikalıq járdem) ..... 286
**Джумабаев К. Н.** Умумий ўрта таълим мактабларида python дастурлаш тилини ўқитиш муаммолари ..... 293
**Бекнозарова З. Ф.** Физика фанини ўқитишда кейс технологиясини ташкил этиш ..... 299
**Бекнозарова З. Ф.** Олий таълимда физика фани амалиёт дарсларини педагогик технологиялар асосида олиб бориш ..... 305
**Мавлонов Р. А.** Қурилиш йўналишлари талабаларига чизма геометрия фанини ўқитишда компетентли ёндашув ..... 309
**Djumaev M.** Matematika o‘qitishda milliy o‘quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o‘ziga xos xususiyatlari ..... 314

# UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINING MAZMUN VA MOHIYATI

**Abduxamidov S. M.**
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Таянч сўзлар:** san'at, tasvir, borliqni idrok etish, badiiy , san'atshunoslik, natura, kompozitsiya estetik, tafakkur, idrok, obyekt, tabiat.

**Ключевые слова:** искусство, образ, восприятие бытия, художественное, искусствознание, природа, эстетическая композиция, мышление, восприятие, предмет, природа.

**Key words:** art, image, perception of being, artistic, art history, nature, aesthetic composition, thinking, perception, object, nature.

San'atni sevmaydigan undan hayratlanmaydigan kishi bo'lmaganidek undan zavqlanmaydigan o'quvchi yoshlar ham bo'lmaydi. San'at asari qaysi ko'rinishda bo'lmasin insoniyat ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi badiiy-estetik sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan bugungi kunda o'quvchi yoshlarga tasviriy san'atdan yuqori darajada mashg'ulotlarni o'ta oladigan malakali kadrlarni tayyorlash o'quv rejasidagi barcha mutaxassislik fanlar qatorida uzluksiz amaliyotning o'rni benihoya katta ahamiyatga ega.

Buyuk bobkalonimiz tib qonuning sultoni Ibn Sino "San'at mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin" degan fikrni bergan, shunday ekan tasviriy san'at orqali yoshlarning ijtimoiy ongini, ma'naviyatini, madaniyatini, dunyoni anglash va tafakkurini shakllantirib rivojlantiradi.

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalar qatori tasviriy san'at ta'lim sohasini takomillashtirish, yoshlarga bo'lgan ye'tibor ularning iste'dodini yuzaga chiqarish uchun istiqbolli ishlar olib borilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan va ta'limning davlat standartlariga asoslangan holda ta'lim mazmuni aniqlanadi.

Tasviriy san'at dasturida uning quyidagi besh turi belgilangan:

1. Borliqni idrok etish (1-4 sinflarda).
2. Badiiy qurish-yasash (1-4 sinflarda).
3. San'atshunoslik asoslari (5-7 sinflarda).

4. Naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflarda).

5. Kompozitsion faoliyat (1-7 sinflarda).

**Borliqni idrok etish** o‘quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi. Borliqni idrok etish mashg‘ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o‘tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak-atrofdagi nafislik va go‘zallikni ko‘ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy badiiy-ijodiy faoliyatlarda foydalanish nazarda tutiladi. Shuningdek, tabiatga qilingan sayohat jarayonida zarur hollarda ayrim ob’ekt va hodisalarni qalam, bo‘yoq va boshqa badiiy materiallar yordamida xomaki rasmlari ham ishlanadi.

**Badiiy qurish-yasash** boshlang‘ich sinf tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshirish va rassomchilikda ishlatiladigan turli materiallar bilan kengroq tanishtirish maqsadida ishlari ham olib boriladi. Tasviriy faoliyatning bu qiziqarli turi uchun dasturda alohida soatlar ajratilgan bo‘lib, ular mashg‘ulotlar mazmunini yanada boyitadi. Qurish-yasash uchun asosan uch xil materiallardan foydalanish nazarda tutiladi:

1. Badiiy materiallar (rangli qog‘ozlar, folga, gulqog‘ozlar, plastilin, loy v.b.).

2. Tabiiy materiallar (daraxt barglari, shoxlari, ildizlari, po‘stlog‘lari, meva va sabzavotlarning urug‘lari, rangli toshchalar, bug‘doy va arpa poyalari v.b.).

3. Tashlandiq materiallar (ichimlik va dori darmondan bo‘shagan sintetik idishlar, gugurt qutichalar, po‘kak, penoplast, idish qopqoqlari) v.b.

Badiiy qurish-yasash mashg‘ulotlarida bolalarni qaychi bilan ishlash, kley yordamida yelimlash, qog‘ozlarni narsalar shakliga mos holda buklash, o‘rash, ayrim badiiy tashlandiq va tabiiy materiallarni bir-birlariga yaqinlashtirish, qo‘shish orqali tasvir yaratish kabi malakalar hosil qilinadi. Bu malakalarni hosil qilish boshlang‘ich sinflar dasturida bir qator topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**San’atshunoslik asoslari** bo‘limi o‘quv predmetining muhim qismlaridan biridir. U dasturda 5-7 sinflarda mustaqil bo‘lim sifatida o‘zining o‘quv vazifalari tizimiga ega va u tasviriy, amaliy-bezak, me’morchilik san’atlari materiallaridan tashkil topadi. Mazkur bo‘limning maqsadi o‘quvchilar tomonidan san’at asarlarini ongli idrok etish va baholash, uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushunishga yordam berishdan iboratdir.

San’atshunoslik asoslari bo‘limi o‘quvchi shaxsining estetik rivojiga ko‘maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san’at asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go‘zalliklari bilan tanishtiradi, badiiy didini shakllantiradi, san’atni sevishga o‘rgatadi.

**Naturaga qarab rasm ishlash** mashgʻulotlari narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, oʻlchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ular tik, yotiq, ogʻma, egri, toʻlqinsimon chiziqlarni chizish, boʻyoqlar bilan tegishli yuzani bir meyorda boʻyash, och tusdan toʻq tusga va aksincha toʻqdan ochga oʻtish, oʻquvchilar toʻgʻri va egri chiziqlarni teng boʻlaklarga boʻlish malakalarni oʻzlashtiradilar. Chizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qogʻoz formatini toʻgʻri tanlashni hamda rasmni qogʻozda kompozitsion jihatdan toʻgʻri joylashtirishni oʻrganadilar. Shuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishlashni oʻzlashtiradilar.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at (rasm) fani faqatgina rasm chizishni emas balki yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, fuqarolik mas'uliyati, o'z ona yurtiga muhabbat, xalq an'analariga hurmat tuyg'usini tarbiyalashda ham oʻrni beqiyosdir. Bugungi kun tasviriy san'at (rasm) fani jamiyatning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining texnologiyalari va usullarini o'zgartirish zarurligini taqozo etmoqda. Umumiy oʻrta ta'lim muassasalari bitiruvchilari har tomonlama kreativ, innovarot, o'zgaruvchan zamonaviy tendentsiyalarga tayyor bo'lishi kerak. Shu bois tasviriy san'at (rasm) fanini o'qitishda individual yondashuv, harakatchanlik va masofaviylikka yoʻnaltirilgan texnologiyalarni joriy etish zarurdir.

**Adabiyotlar:**


1. Sultanov X.E., Sobirov S.T. Tasviriy san'at oʻqitish metodikasi. (1-sinf uchun). Oʻquv qoʻllanma. 2021.
2. S.M.Abdulhamidov Tasviriy va amaliy san'at (Tasviriy san'at o'qitish metodkasi), o'quv qo'llanma. 2021.
3. Muratov X.X. "Qalamtasvir" o'quv qo'llanma. 2020.
4. Sobirov S.T. "Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati". Uslubiy qo'llanma, 2021.
5. Abdirasilov S. Tasviriy san'at oʻqitish metodikasi. Darslik. 2012.
6. Umumiy oʻrta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi.-Toshkent, 1995.
7. Tasviriy san'at. Umumiy oʻrta ta'limning davlat ta'lim standarti va oʻquv dasturi. 1999.



**РЕЗЮМЕ**

Umumiy oʻrta ta'lim maktablarida tasviriy san'at oʻquv predmetining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan va ta'limning davlat standartlariga asoslangan holda ta'lim mazmuni qisqacha ochib berilgan.

**РЕЗЮМЕ**

Кратко раскрывается содержание образования исходя из целей и задач предмета изобразительного искусства в общеобразовательных средних школах и исходя из государственных стандартов образования.

**SUMMARY**

The content of education is briefly revealed based on the goals and tasks of the subject of fine arts in general secondary schools and based on the state standards of education.